

O'ZBEK MUMTOZ VA BADIY ADABIYOTI TARIXI

O'razaliyeva Maftuna Ibroyim qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti Amaliy filalogiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Badiiy adabiyot har bir xalqning madaniy va ma'naviy merosi hisoblanadi. O'zbek badiiy adabiyotini o'rganish jarayoni albatta, bevosita adabiyotning kelib chiqish va rivojlanish tarixiga borib taqaladi. Shu boisdan ushbu maqolada muallif o'zbek adabiyotining davriy tarixi va bugungi kundagi badiiy hamda zamonaviy adabiyot namunalari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: mumtoz, badiiy, tarixiy asarlar, turkiy qabilalar, xonlik, XIX asr, taraqqiyot bosqichlari va h.k.

Badiiy adabiyot o'zining vujudga kelish, shakllanish va rivojlanish tarixi davomida turli vazifalarni o'z oldiga qo'yib keldi. Shu kecha va kunduzda turli oqimlar va yo'nalishlardan iborat jahon adabiyotida yaratilayotgan asarlarda ham mualliflar o'z oldilariga turlicha vazifa va maqsadlarni qo'ymoqdalar. Hatto shunday yozuvchilar ham borki, ular nazarida adabiyot biror muayyan vazifani bajarishi shart emas. Maxsus, tor va profetsional ma'nodagi "adabiyot" atamasi o'zbek adabiy tiliga XX asrning boshlarida kirib kelgan. O'tmishda badiiy adabiyot bilan birga ilmiy, tarixiy, axloqiy kitoblar ham adabiyot atamasi tushunchasi ham doirasiga kiritilgan. O'rta asrlarda shunday asarlar ham yaratilganki, ulardan so'z san'ati ilmi, fan, odob-axloq masalalari bilan qorishib ketgan ("Qobusnoma", "Qutadg'u bilig", "Boburnoma" singari). Bundan tashqari sof badiiy asarlar ham "adabiyot" atamasi tushunchasi doirasiga kiritilgan. She'riy asarlar "nazm", "manzuma", "abyot", "she'r" atamalari bilan nasriy asarlar "nasr" nomi bilan yuritilgan. She'riy to'plamlar uchun "devon", "bayoz" singari atamalar qo'llanilsa-da, umumiy maxsus atama ishlatilmagan.

Ammo biz badiiy adabiyot deganimizda, ilg'or va taraqqiyparvar yozuvchilarning asarlaridan iborat badiiy olamni nazarda tutamiz. Antik davrdan to hozirga qadar davom etib kelayotgan Sharq va G'arb adabiyotining ilg'or namoyandalari uchun adabiyotning birinchi vazifasi hayotning haqqoniy badiiy in'ikosini yaratishdir. Biz hayot deganda mamlakat, jamiyat, xalq va ayrim shaxslar hayotini nazarda tutamiz. Badiiy adabiyot hayotni badiiy aks ettirish jarayonida shu hayotdagi go'zallik va ezgulikni tasdiqlaydi, jamiyat va kishilar hayotidagi yangi va ilg'or tamoyillarning qanot yozishiga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning ikkinchi muhim vazifasi inson obrazini yaratish, uning ichki olamini tasvirlash, tabiati va ruhiyatidagi go'zallik kurtaklarining tashqi olam ta'sirida g'uncha tugishi va gullashi jarayonini ko'rsatishdir. To'g'ri, kishilar tabiati va ruhiyatidagi ichki belgilar tashqi omillar ta'sirida har

doim ham porlab yubormasligi, aksincha, salbiy xislatlar, xuddi gulzordagi yovvoyi o'tlar singari, bo'y cho'zishi mumkin. Lekin badiiy adabiyot, ibrat maktabi sifatida, kishilarda yaxshi fazilatlarining chaman bo'lib ochilishiga xizmat qilishi lozim. Badiiy adabiyotning uchinchi muhim vazifasi shundaki, u hayotni, insonni va uning ruhiy olamini aks ettiribgina qolmay, tabiatdagi va kishilar ruhiyatidagi go'zallikni tasvirlash, tarixiy o'tmishdagi, shuningdek, hozirgi davrdagi ibratli voqealar va ajoyib kishilar hayotini aks ettirish orqali - kishilarga emotsional ta'sir o'tkazish, zavq-shavq bag'ishlash, ularni tarbiyalash, ularning barkamol insonlar bo'lib shakllanishida faol ishtirok etishdir.

Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog'lashadi. Ba'zi olimlarimiz, jumladan, prof. N.Mallayev o'zbek adabiyoti tarixini, bir tomondan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o'sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so'z san'atining boshqa jihatlari takomiliga xos xususiyatlarni ko'zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko'rsatib o'tishgan. Professor N.Mallayevning oliy o'quv yurti talabalari uchun chiqargan darsligida o'zbek adabiyoti tarixi quyidagi bosqichlarga bo'lingan:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. X-XI asrlar adabiyoti.
3. XI asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Markaziy Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardan yozuvdan foydalanib kelishgan. Avesto yozuvi, oromiy yozuvi hududimizda foydalanilgan eng qadimgi xat turlaridan ekanligi tasdiqlangan. Mutaxassislar o'rxun yozuvi I asrda vujudga kelganligini ta'kidlashadi. Markaziy Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti manbalari bizga qadar yetib kelmagan bo'lsa ham "Devonu lug'ot it-turk", "Qutadg'u bilig" asarlaridagi faktlar ajdodlarimiz falakiyot sohasida ham ulkan yutuqlarga erishganligini isbotlaydi. Beruniy "Osor ul-boqiya" asarida qadimgi Xorazmda nihoyatda aniq taqvim yaratilganligi, ilm-fan o'ta taraqqiy etganligini yozadi. Badiiy asarni ma'lum bir xalq adabiyotiga nisbat berish uchun faqat tilni asos qilib olish yetarli emas. Bunday muammoli masalalar tug'ilganida badiiy asarda aks etgan diniy e'tiqodlar, qabila yoki xalqlarning urf-odatlar, obrazlarning xarakteri va qahramonligi so'nggi asrlardagi qaysi xalqning turmushida saqlanganligi nuqtayi nazaridan ham yondashish kerak. «Bilgamish» dostonini turkiy xalqlar adabiy merosiga nisbat berishga sabab unda ko'pgina qadimiylik belgilari saqlanib qolganidir. Turkiy qabilalarning eng qadimgi qavmi gumer

hisoblanadi. Bu qavm o`zlarini Nuh to`fonidan so`ng dunyoda paydo bo`lgan birinchi xalqlardan deb tushunishgan. Qadimshunoslar turkiylarning kimmer qabilasini gumer qavmining nomi sifatida e`tirof etishadi. Antik yunon va ossuriy tarixchilarining kitoblarida kimmerlar haqida boy ma'lumotlar berilgan. Tarixiy asarlarda bu turkiy qabilaning nomi gimmer, kimmer shaklida, shumer esa ba'zan sumer shaklida ham yozilgan. Shumer va kimmer nomlarida mantiqan bog`lanish hamda ohangdorlik bor. Qolaversa, gumerlar ham shumerlardek dunyodagi eng qadimgi qabilalardan biridir.

Turkiy adabiyotdagi afsonalarning dastlabki yozib olinishi Mahmud Koshg`ariy nomi bilan bog`liq. U o`zining «Devon-u lug`otit-turk» («Turkiy so`zlar devoni») kitobida xalq og`zaki ijodining boshqa namunalari qatorida bir necha afsonalarni ham keltirgan. Bu afsonalar Mahmud Koshg`ariy kitobida «sav» deb nomlangan. Mahmud Koshg`ariy «Oltin qon» nomli tog` haqidagi afsonani XI asrdayozib olgan. Mana o`sha afsona: «Zulqarnayn Chinga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo`lladi. Vazir shohga aytdi: «Siz butunlay yoshlarni chiqardingiz, aslida katta yoshh, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi», — deganda «o`ga» so`zini tajribali? katta yoshli kishilar ma'nosida qo`lladi. Shunda shoh «to`g`ri» dedi va katta yoshli kishilarni yo`lladi. Ular kechasi Zulqarnaynning ilg`or askarlariga hujum qildilar va yengdilar. Turk askarlaridan biri Zulqarnayn askaridan birini qilich bilan urib kindigigacha ikkiga ajratib yubordi. O`lgan askarning belbog`ida oltin hamyon bor edi. Hamyonga qilich tegib kesildi. Undagi qonga bo`yalgan oltinlar yerga sochildi. Ertasi ertalab turk askarlari qonga bo`yalgan oltinlarni ko`rib, bir-birlariga «Bu nima?» - deyishar va «Oltin qon» — «qonli oltin» deb aytishar edi. Bu joydagi katta tog` shu ism bilan ataldi. Uyg`urlar yaqinidagi bu tog` atrofida ko`pgina sahroyi turklar yashar edilar».

Ilm-fan, san'at va madaniyat rivoji bevosita davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi bilan chambarchas bog`liq. Adabiyot ham jamiyat taraqqiyoti qonunlariga vobasta harakatlanadi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, fikrlar kurashini o`zida badiiyaks ettiradi. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashadigan bo`lsak, o`zbek mumtoz adabiyotini muayyan tarixiy jarayonlar asosida davrlashtirib o`iganish u haqda ma'lum umumlashmaxulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Biroq adabiyot taraqqiyotining o`ziga xos qonuniyatlari inobatga olinmas ekan, bu xulosalar bir yoqlama mohiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyat kasb etishi, unga turli adabiy oqimlarning ta`siri, ular o`rtasidagi fikrlar kurashi, rang-barang va xilma-xil janrlar taraqqiyoti, muayyan davrda yaratilgan badiiy asarlarning til xususiyatlari hamda so`z san`atining boshqa tam oyillarini nazarda tutib o`zbek adabiyoti taraqqiyot jarayonlarini tarixiylik nuqtai nazaridan davrlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi. O`zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishda uni ba'zi podsholiklar, sulolalar nomlari bilan atash lozimligi haqida ham fikrlar bildirilgan. Biroq adabiyotning o`ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari bunday qarashlarni to`la oqlamaydi. Adabiyotshunos N. M. Mallayev o`zining «O`zbek adabiyoti tarixi» kitobida o`zbek adabiyoti tarixini yuqorida qayd etilgan qamrovli

tamoyillaiga ko'ra 6 davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi. Olim undagi ayrim bosqichlarni ichki bosqich - etaplarga bo'lib o'rganish mumkinligini ham e'tirof etgan. O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirishda N.Mallayevning fikrlariga tayanish mumkin. Chunki mazkur masalaga doir bahs-u munozaralar o'zining yetarli yechimini topmagan ekan, fanda qabul qilingan hukmron fikrga tayanish, uni o'quvchilarga taqdim etish pand bermaydi.

Ma'lumki, badiiy asar madaniy-adabiy an'analar zaminida dunyoga keladi, uning qator badiiy xususiyatlari shu kontekstdagina yorqin namoyon bo'ladi, anglashiladi. Masalan, A.Qahhorning "O'g'ri" va "Dahshat" hikoyalari o'tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa, adib har ikki hikoyada ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy idrok etishga, o'sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarini ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Bulardan tashqari, badiiy asarni, aniqrog'i, uning ijtimoiy mavjudligini, shuningdek, adabiy jarayonning muayyan muammolari, kitobxonlar ommasining qiziqishlarini o'rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlaridan ham foydalaniladi. Ijodkorlar yoki o'quvchilar orasida sotsiologik so'rovlar o'tkazish, matbuot sahifalarida o'tkaziluvchi so'rovlar, ayrim masalalar bo'yicha tashkil etiluvchi davra suhbatlari, alohida asarlarga bag'ishlangan kitobxonlar anjumanlari bunga misol qilinishi mumkin. Shuningdek, konkret asarning ijtimoiy hayotini o'rganishda u haqda yaratilgan tanqidiy asarlarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976, 1-kitob.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. <http://til-adabyot.zn.uz/adabiyot-nima-oz/>
7. <https://hozir.org/reja-adabiyot-soz-sanati.html>